



BUXORO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vosisidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatoria savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiylanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **929,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **92,1** % ga yetdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **107,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **158,3** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **821,9** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **87,3** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **102,6** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **85,3** %) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	929,8	92,1	107,9	158,3	821,9	87,3
Buxoro shahri	254,9	91,8	46,1	109,7	208,8	88,6
Kogon shahri	31,0	85,7	1,2	154,9	29,7	84,1
tumanlar Olot	30,1	85,2	0,5	76,1	29,6	85,4
Buxoro	67,2	88,7	0,5	138,3	66,7	88,5
Vobkent	33,4	87,7	0,6	90,5	33,2	87,7
Gi'duvon	171,7	87,9	5,1	133,3	166,6	87,0
Kogon	49,2	157,0	43,1	2,8 m.	6,1	39,7
Qorako'l	75,7	88,4	1,0	94,4	74,8	88,3
Qorovulbozor	20,8	87,8	0,1	92,4	20,7	87,7
Peshku	31,1	95,0	7,7	11,9 m.	23,4	72,9
Romitan	63,9	94,1	0,7	132,3	63,2	93,8
Jondor	58,4	91,5	0,7	67,0	57,7	91,9
Shofirkon	41,9	92,7	0,7	102,2	41,3	92,6

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning faqatgina Kogon (**157,0 %**) tumanida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.


YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar oyi, mlrd.so'm)



So'nggi **6 yillikda** chakan savdo Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2018- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2017-yilning mos davriga nisbatan **120,1 %** ni yoki **479,3 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)**




2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 92,1 % ni tashkil qildi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **821,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar oyiga nisbatan **12,7 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **88,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **58,3 %** ga o'sdi va **107,9** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiyl savdo hajmining **11,6 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorovulbozor (**99,4 %**), Buxoro (**99,3 %**) va Romitan (**98,8 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **11,6 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Kogon (**87,5 %**), Peshku (**24,9 %**) tumanlari va Buxoro (**18,1 %**) shahrida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Buxoro viloyati	466,5	90,7
Buxoro shahri	889,8	90,6
Kogon shahri <i>tumanlar</i>	490,6	84,1
Olot	294,5	84,0
Buxoro	387,2	87,2
Vobkent	233,6	86,4
Gi'duvon	545,9	86,5
Kogon	600,7	153,9
Qorako'l	449,4	87,3
Qorovulbozor	1079,9	85,5
Peshku	243,6	93,4
Romitan	433,3	92,5
Jondor	322,8	90,1
Shofirkon	229,2	91,4


2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **466,5** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **90,7 %**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Qorovulbozor (**1079,9** ming. so'm) tumani, Buxoro shahri (**889,8** ming. so'm) va Kogon (**600,7** ming. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Buxoro viloyati bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **102,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **85,3 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **42,5** mlrd. so'mni (**73,9 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **60,1** mlrd so'mni tashkil etdi (**95,7 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	102,6	85,3	42,5	73,9	60,1	95,7
Buxoro shahri	12,1	64,8	10,7	75,6	1,4	30,8
Kogon shahri	5,5	180,7	3,5	2,1 m.	2	145,7
tumanlar						
Olot	7,9	58,4	2,8	193,2	5,1	42,0
Buxoro	0,9	31	0,3	13,9	0,6	63,8
Vobkent	12,3	128,5	8,6	173,0	3,7	80,3
Gi'duvon	11,4	23,8	2,9	10,7	8,5	42,0
Kogon	0,2	2,5 m.	0,2	2,5 m.	0	0
Qorako'l	15,5	2,2 m.	3,3	5,2 m.	12,2	189,4
Qorovulbozor	1,4	78	0,4	95,3	1,0	73,6
Peshku	7,3	2,6 m.	2,3	3,8 m.	5,0	221,5
Romitan	7,9	110,2	2,5	198,6	5,4	91,5
Jondor	7,4	3,3 m.	2,6	12,2 m.	4,8	2,3 m.
Shofirkon	12,8	3,8 m.	2,4	105,8	10,4	918,7

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatUVI o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **42,5** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**17,3** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 17,3
	Non va non mahsulotlari 2,7
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 1,9
	Tovuq go‘shti 2,8
	Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 3,0
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 1,7
	Tuxum 1,8
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 0,5
	Ziravorlar 1,7
	Tuzlamalar 2,1
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 0,8
	Nooziq-ovqat tovarlari 6,2

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **60,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **52,9** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **6,4** mlrd. so'mni, otlar – **0,2** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,3** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar	27,3
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	16,6
 1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar	9,2
 Qo'ylar	4,4
 Otlar	0,2
 Echkilar	2,2
 Kurka, o'rdak, g'oz	0,09
 Tovuqlar	0,002
 Quyonlar	0
 Qushlar	0,2

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **2 095** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – fevral holatiga nisbatan **311** taga oshgan va o'sish sur'ati **105,1 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 089** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **3,6 %** ni tashkil etib, **33,6** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,4 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **83,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	33,6	80,6	5,6	132,3	28,0	83,0
Buxoro shahri	17,1	74	3,9	102,5	13,2	75,7
Kogon shahri	0,7	79,1	-	-	0,7	79,1
tumanlar						
Olot	0,5	86	-	-	0,5	86
Buxoro	1,4	95,8	-	-	1,4	95,8
Vobkent	2,0	80,5	-	-	2,0	80,5
Gi'duvon	2,9	71,9	-	-	2,9	71,9
Kogon	0,5	73,3	-	-	0,5	73,3
Qorako'l	1,4	83,3	-	-	1,4	83,3
Qorovulbozor	1,2	94,1	0,3	91,6	0,9	83,8
Peshku	0,6	47,1	-		0,6	47,1
Romitan	3,2	157,2	1,3	-	1,9	80,4
Jondor	1,2	99,9	-	-	1,2	99,9
Shofirkon	0,7	95,2	-	-	0,7	95,2

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **212,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **13,4 %** ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **159,9** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati- **95,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **53,0** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Buxoro viloyati	212,9	100,0
Buxoro shahri	135,3	63,5
Kogon shahri	0,3	0,1
tumanlar Olot	0,3	0,1
Buxoro	1,4	0,7
Vobkent	37,4	17,7
Gi'duvon	32,7	15,4
Kogon	0,8	0,4
Qorako'l	0,5	0,2
Qorovulbozor	0,2	0,1
Peshku	1,8	0,8
Romitan	0,9	0,5
Jondor	0,5	0,2
Shofirkon	0,7	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Buxoro shahri (**135,3** mlrd. so'm), Vobkent (**37,4** mlrd. so'm) va G'ijduvon (**32,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **520,9** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **7,6 %** ga o‘sdi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **325,9** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **81,3 %**ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **62,6 %** ni tashkil qildi.




ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Kogon (**4,0 b.**) tumani va Buxoro (**2,4 b.**) shahrida kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **2 485** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **33** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **118,5 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **21** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 464** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Buxoro viloyati	520,9	107,6	194,9	2,3 b	326	81,3
Buxoro shahri	115,8	103,5	9,1	2,4 b	106,7	98,6
Kogon shahri	5,6	26,9	2,0	75,6	3,6	19,8
tumanlar Olot	3,1	93,9	-	-	3,1	94,2
Buxoro	12,6	94,3	-	-	12,6	94,3
Vobkent	110,2	173,7	113,4	169,6	3,2	93,1
Gi'duvon	44,6	54,1	5,3	120,7	39,3	50,3
Kogon	57,4	144,4	22,1	4,0 b	35,3	102,9
Qorako'l	5,5	103,3	-	-	5,5	103,3
Qorovulbozor	3,4	88,1	0,02	-	3,38	87,3
Peshku	50,6	220,3	42,6	-	8	34,8
Romitan	45,9	96,0	0,3	124,4	45,6	95,9
Jondor	62,9	94,4	-	-	62,9	94,4
Shofirkon	3,2	127,2	-	-	3,2	127,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 65-223-75-63